



O'QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI NUTQINING AHAMIYATI

Qahramonova Zulfiya Yolgoshvna

*Jizzax viloyati Paxtakor tumani 14-son umumta'lim maktabining 1-toifali ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Nutq madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim belgisi bo'lib, unda millat ma'naviyati, madaniyati o'z aksini topadi. Nutq madaniyati to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Ushbu maqolada o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari va bunda o'qituvchilar nutqining ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ona tili, mashq, dastur, metod, dars, nutq, o'qituvchi, millat, til, fan, dunoqarash, madaniyat, o'quvchi, sheva.*

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni juda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zguvidir. Til o'qitishdan asosiy maqsad birinchi navbatda kishida nutqiy savodxonlikni oshirish hisoblanadi. Ana shu maqsadning amalga oshirilishi esa, avvalo, o'qituvchi va uning izlanishlariga bog'liqdir.

Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o'ziga xos o'rni muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig'ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to'g'ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g'oya mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me'yorlariga asoslanib so'zlab berish hamda yozish, o'z nutqini og'zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriydir. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", -deb e'tirof qilinishi ona tili o'qitish metodikasi oldiga ta'lim jarayonining sub'ektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma'lum fikrini ma'noli ifodalab, aniq, sermazmun so'zlab yetkazadigan va diqqat bilan o'qish qobiliyatlariga ega bo'lgan hamda yozish jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma'lumot va axborotlarni o'qib kerakli xulosani chiqaradigan, o'z pozitsiyasiga ega bo'lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo'yadi.

Har bir insonning nutqi o'ziga xosligini yaxshi bilamiz. Insonning kimligi, dunoqarashi, ichki dunyosi, ma'naviy olami uning nutqi orqali namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, ta'lim- tarbiya jarayoni bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar nutqi namunali, e'tiborli bo'lishi lozim. O'qituvchi faqatgina bilim berib qolmasdan, o'quvchilarni tarbiyalaydi ham. Shu sababli o'qituvchi nutqi tushunarli, mazmunli,



ravon, lo'nda va aniq bo'lishi shart. Yosh avlodda o'z fikrlarini chiroyli, ixcham, mustaqil ifodalay olish ko'nikmalarining shakllanishida ko'proq o'qituvchi mehnati singishi lozim. Faqat ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi emas, boshqa fan o'qituvchilari ham chirolu nutq malakasini egallagan bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Barcha fan o'qituvchilari zimmasiga birdek vazifa yuklangan. Ba'zi kishilar faqat tillar yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar olib boradigan o'qituvchi nutqi go'zal bo'lishi kerak, ular nutqiy savodxonlikka e'tibor berishlari lozim, degan fikrlarni aytadilar. Bu fikr mutlaqo noto'g'ri, albatta. Har bir fan o'qituvchisi chirolu nutq malakasiga ega bo'lsagina, o'quvchilarda nutqiy savodxonlik bir tekisda shakllanadi. Agar darsda o'qituvchi nutqida to'mtoqlik, qo'pollik sezilsa, ta'lim –tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Butun dars davomida madaniyatli, jozibador, mantiqiy nutqi bilan o'quvchilar qalbiga yo'l topa olgan ustozgina haqiqiy bilimni bera oladi.

Hamma ham chiroyli so'zlash qobiliyatiga ega emas, hamma ham notiqlik san'ati, nutqiy salohiyat bir xil shakllanmagan. Ming afsuski, guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, o'z fikrlarini, bilimni o'quvchilarga yetkaza olmaydiganlar ham bor. O'qituvchi hech qachon izlanishdan, o'qib-o'rganishdan to'xtamasligi lozim. Chunki o'qituvchi shunda ma'lum maqsadga erisha oladi. O'z ustozining yurish-turishi, chiroyli nutqi, madaniyati, bilimi tufayli o'quvchi- yoshlar uni yaxshi qabul qilishadi. Ba'zida ayrim ustozlar nutqida sheva so'zlari, ruscha- o'zbekcha aralash fikrlar, uzuq-yuluq gaplarni eshitib qolamiz. Bu nihoyatda yomon. O'qituvchining darsini kuzatish maqsadida dars tahliliga kirgan ustozlar bu kamchiliklarni o'z vaqtida aytishsa u keyingi safar shu xatoni takrorlamaslikka harakat qiladi.

Bugungi kun ta'lim jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Bu yangiliklarning darsdagi bosh ijrochisi ham o'qituvchining o'zidir. U darsda ilg'or tajribalarga tayanishi, o'quvchilarni darsga qiziqtrish uchun turli usllardan, ko'rgazmali qurollardan, slayd va multimediyalardan, elektron darsliklardan foydalanadi. Shuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodga vatanparvarlik, insoniylik va yuksak ma'naviyatni jozibador nutq orqali singdirish har bir o'qituvchining eng asosiy burchlaridan biri hisoblanmog'i lozim.

Darsda mavzu qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, o'qituvchi mavzuni sodda va tushunarli tarzda yetkaza olsagina, maqsadga erishish mumkin.

Maktablarda o'tkaziladigan turli tadbirlar, tanlovlar maktab ma'naviyatchisi hamda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ishtirokida amalga oshiriladi. Shu sababli bu ustozlar ta'lim va tarbiya jarayonlarida e'tiborli bo'lishlari shart.

Dars berish jarayonida turli xil o'quvchi- yoshlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Boshlang'ich ta'limni tugatib, 5-sinfqa qadam qo'ygan bola uchun yangi bir dunyo kashf etiladi, go'yo. Ustoz- muallim shirin va chiroyli muomalasi, bilimi ta'sirchan nutqi orqali o'z ortidan o'quvchini ergashtira olsagina, bola kelajagi porloq boladi. Shunda ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Bundan tashqari o'quvchi qalbiga ertaklar, dostonlar, badiiy asar qahramonlarining nutqlarini yoritish orqali ham yo'l topa olish



mumkin. Ana shu bolada chiroyli nutqiy madaniyat shakllanishi tabiiy. Bu esa o'qituvchidan tinmay izlanish, mehnat qilishni, o'z ustida ishlashni taqozo qiladi.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi omillarni keltirish mumkin.

- o'quv dasturida berilgan mavzular bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish;

- mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlash va nutqini o'stirish;

- ona tili darsligida berilgan matn va lug'at ustida ishlashni muntazam olib borish;

- ona tili mashg'ulotlarida ilg'or texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida bog'lanishli matn tuzish va yozish malakalariga e'tibor qaratish;

- ilmiy qarashlarga va badiiy ifodalarni izohlab, ularga subyektiv munosabat bildirish va mantiqiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Demak, ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir dars davomida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi nutqi izchil, mantiqiy bo'lsa, u uzoq vaqt o'quvchi xotirasida yashaydi. Biz o'quvchiga badiiy asarlarni o'qitish, kitobxonlikni yo'lga qo'yish orqali ham chiroyli nutq madaniyatni shakllantirishimiz kerak. Buning uchun o'zimiz ularga o'rnak bo'la olishimiz lozim.

Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki kar-saqov kishilarga biron bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashinishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o'xshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog'lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan. U kommunikatsiyaning mazmunini hisoblanishi nazarga ham, munosabatga ham, kirishganlarga nisbatan ham muayyan tarzda taalluqli bo'lib nutqiy fikr mulohazalar bilan qo'shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his hayajonli munosabatda axborot ayriboshlashning alohida nutqsiz jihati o'zgacha nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi. Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va hokazo ma'no baxsh etgan xilda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Nutqsiz kommunikatsiya imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rangbaranglik ham rivojlana boradi. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola ham suhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga katta yoshdagi kishining so'zlariga ilova bo'ladigan va kuchaytiradigan qo'l-barmoqlari va yuz harakatining ma'nosini tushunishga o'rganadi.



O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotga bir qancha talablar qo'yiladiki, pedagogik jarayonlar davomida bularga qat'iy rioya qilish kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat: O'qituvchining nutqi ravon bo'lishi, o'qituvchining fikrlar bayoni aniq, tushunarli bo'lishi, nutq jarayonida qo'l, ko'z, yuz imo-ishoralardan foydalanishda ularning uzviy (bog'liq)ligiga erishish, nutq orqali o'quvchilar ongi, qalbi, xatti - harakatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish, nutq talaffuzi orqali o'quvchi bilan muloqotga kirishish jarayonida ularning o'ziga xos xususiyatlarini (pedopsixofiziologik) hisobga olish, o'qituvchi nutqining talaffuzida ahloqiy normalarning shakllangan bo'lishi, o'qituvchi shaxsiga xos va mos tarzda o'quvchilar bilan muloqotga kirishishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida uslubiy, stilistik xatolarga yo'l qo'ymasligi, o'qituvchining nutq qobiliyati rivojlangan bo'lishi, o'qituvchi dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga ovoz monotonidan ijobiy foydalanib muloqotga kirishishi, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ularni tarbiyalab borish, ongi, xulqida insoniy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy normalarni qaror toptirishi, muloqot jarayonida badiiy so'z san'atiga qat'iy rioya qilishi, o'qituvchi notiqlik san'atini egallab borishi va so'ngra muloqotga kirishishi, muntazam ravishda nutq talaffuzini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanib borishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida pauza, intonatsiyalardan oqilona foydalanishi, muloqot jarayonida o'qituvchi to'liq va to'g'ri fikrlay olishga o'rganishiga bog'liq.

Biz pedagog - o'qituvchilar o'z lug'at boyligimizni muttasil boyitib borishimiz, adabiy tilda to'g'ri talaffuz qoidalariga e'tiborli bo'lishimiz, badiiy adabiyotlarni ko'p o'qishimiz yaxshi natijalarni qo'lga kiritishimizda asos bo'ladi. Shundagina sharafl va mas'uliyatli kasb hisoblangan o'qituvchi nomini yuksaklikka ko'tarishimiz mumkin. Yosh avlod tarbiyasiga muhim hissa qo'shgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Sayidahmedov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya- T., 2003
2. Y.A.Komenskiy. Buyuk didaktika- T., O'qituvchi, 1975
3. To'xtayeva. O'quvchilarda nutqiy savodxonlikni oshirishda o'qituvchi nutqining ahamiyati. T., 2020
4. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.: Yangi asr avlodi, 2006